

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ
VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITET

REFERAT

Mavzu: Kimyoviy moddalarning tas'hqi
muhitga ta'siri

Tekshirdi: _____

Bajardi: Sharipov J

TOSHKENT-2014

Reja

1. Kimyo sanoatining hozirgi kunda tutgan o'ri.
2. Kimyo sanoati havo, suv va tuproqni ifloslantiruvchi manba sifatida.
3. Respublikamizda sanoatlashgan viloyatlar va ularning tashqi muhitga salbiy ta'siri.
4. Zaharli kimyoviy moddalarning inson salomatligiga salbiy ta'siri.

Inson ehtiyoji uchun kimyo mahsulotlari shunchalik ko'p qo'llanilmoqdaki, endilikda turmushimizni busiz tasavvur qila olmaymiz. Kimyo sanoati rang – barang kimyoviy moddalarni – kislotalar, ishqorlar, tuzlar, mineral o'g'itlar, zaharli ximikatlar, polimerlar, sintetik tolalar, erituvchilar, smolalar, bo'yoqlar, loklar, gugurt, kir yuvishda ishlatiladigan poroshoklar, plastmassadan yasalgan xilma – xil ro'zg'or buyumlari, xo'jalik buyumlari, shuningdek sanoatimiz uchun asqotadigan ko'pdan – ko'p vositalarni ishlab chiqaradi.

E'tirof etish kerakki, kimyo sanoatidagi ishlab chiqarish texnologiyasida hali jiddiy kamchiliklar bor. Shuningdek transport vositalaridan chiqqan zaharli kimyoviy moddalar ham tashqi muhitni ifloslantirmoqda. Ulardan chiqqan zaharli chiqindilar tashqi muhitga salbiy ta'sir ko'rsatib, havoni, suvni, tuproqni ifloslantirib yubormoqda. Bu o'z navbatida kishilar sog'lig'iga ziyon yetkazmoqda, o'simliklar, hayvonlar turli kasalliklarga chalinib, halokatga uchramoqda.

Kimyo mahsulotlarining ko'p ishlab chiqarilishi, ekologik muvozanatning buzilishiga sabab bo'layapti. Natijada ulardan keladigan ofat hozirgi davrda global xarakterga ega bo'lib qoldi. Masalan, Antraktida ustida ozon qavatining siyraklashib borayotganligi jahon jamoatchiligini katta tashvishga solmoqda.

Pomir tog'ining ustidagi ozon qavati, mintaqaning sahro joylariga nisbatan 15-20 foiz siyrak ekanligi ma'lum bo'ldi. Mutaxassislarning fikricha, buning sababi Markaziy Osiyodagi ekologik muvozanatning keskin buzilishidir. Ozon qavatining siyraklashivi Amerika, YEropa, Osiyo mamlakatlari osmonning yuqori qavatlarida ham sodir bo'layotganligini aniqlandi.

Ma'lumki, ozon quyoshdan keladigan ultrabinafsha nurlarini to'sib, yerdagi barcha tirik mavjudodlarga hayot baxsh etadi. Aniqlanishicha, ozon qavatining siyraklashishiga asosiy sabab kimyo korxonalaridan chiqayotgan metan, azot oksidlari, ayniqsa, xolodilniklarda (muzlatkichlarda) sovitgich sifatida ishlatiladigan freon birikmalari ekan. Freon galogen elementlari (ftor, xlor, yod va boshqalar) birikmalaridan iborat bo'lib, ular unchalik zaharli emas, yonmaydi,

boshqa moddalar bilan tez reaksiyaga ham kirishmaydi. Ammo bu gazlar atmosferaning yuqori qatlamiga ko'tarilgach, ozon gazni parchalab yuborish xususiyatiga ega ekan. Hozirgi davrda dunyo bo'yicha 1 mln tonna freon ishlab chiqariladi. Umumiy ishlab chiqariladigan freonlarning 40% AQS'H, 10% Sobiq SSSR va Yaponiya xissasiga to'g'ri keladi.

Aniqlanishicha hozirgi paytda biosferada 70 ming xil yangi kimyoviy moddalar tarqalgan, qaysiki ular ilgari tabiatda uchramagan. Shundan 400 xili kishilar organizmidan topilgan. Tekshirilganida 100 kishidan 99 kishining tanasida bu yot kimyoviy moddalarning borligi ma'lum bo'lgan. Ayni paytda sayyoramizning biror burchagi yo'qki, har xil kimyoviy moddalar bilan ifloslanmagan bo'lsa.

Reyn daryosiga korxonalardan oqiziladigan kimyoviy moddalar, daryoning barcha tirik mavjudotlarini nobud qilib yuborganidan tashqari, dengiz suvini ham ifloslantirib, Gollandiya qirg'oqlaridagi ko'plab suv hayvonlarini halok etgan. Hozirgi paytda Boltiq dengizidagi tyulenlar soni kamayib ketmoqda. Tekshirishlardan ma'lum bo'ldiki, dengizga oqizilgan polixlor, binifel va boshqa moddalardan zaharlangan baliqlarni yegan tyulenlarning urchish organlari funktsiyasi buzilgan. Shuningdek insonlarda ham bu moddalar ta'sirida ginekologik kasalliklar sodir bo'lgan.

Ma'lumki, o'tgan asrda va asrimizning o'rtalariga qadar qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi asosan ekologik (agrotexnik, mexanik, biologik metodlar asosida) usulida kurash olib borilgan. XX asrning 50 - yillardan keyin zararkunandalarga qarshi kurash borasida faqat kimyoviy usul joriy etila boshlandi. Dalalarda nuqul DDT, geksaqloran, merkaptofas kabi o'ta kuchli og'ular sepilaverdi. Kimyoviy preparatlarni ko'p qo'llayverish ekinzorlardagi barcha foydali hasharotlarni, ya'ni zararkunandalarning tabiiy kushandalari va o'simlik gullarini changlatuvchilarni qirib yuboradi. Oqibatda zararkunandalar ham kamaymaydi, hosildorlik ham oshmaydi. Bular natijasida inson hayotiga hayvon va o'simliklar dunyosiga katta ziyon yetkazildi, qishloq aholisi, ayniqsa, bolalar ommaviy xavfli kasalliklarga duchor bo'ldi. Bu kimyoviy moddalar o'sha davrda

ta'qiqlab qo'yilmadi, aksincha bunga qarshi bo'lgan xaqguy mutaxassislar esa ta'qib ostiga olindi.

Turg'unlik yillari paxta maydonlariga qishloq xo'jalik zararkunundalariga qarshi samolyotlar orqali zaharli moddalar sepilardi. Samolyot orqali sepilganda zaharli moddalar 1 km va undan ham uzoq masofalargacha tarqalardi. Natijada ular havoga, suvga, yerga, ekinzoru - bog'larga tushib, tashqi muhitni zaharlab yuboravergan. Ekinlarga sepilgan yoki dalada to'kilib qolgan zaharli moddalar yerga shimilib yer osti suvlarini ham zaharlagan.

AQS'Hning Florida va Koliforniya shtatlaridagi 30% yer osti suvi zaharli kimyoviy moddalar bilan ifloslanganligi aniqlanib, suv manbalari yopib qo'yildi. Shuning uchun ham yer osti suv manbalarini tekshirib turish, kimyoviy moddalarni qo'llaganda gigiyenik qoidalarga qattiq rioya qilish kerak.

Zaharli kimyoviy moddalarni oz yoki ko'p miqdorda ishlatishdan qat'iy nazar, ular zararlidir. Misol uchun, Afrika mamlakatlaridan birida tsetse pashshasiga qarshi deltametrin va permetrinlarni juda oz (gektariga bir gramm) miqdorida sepilganda bu preparatlar tushgan suvda 2 turdagi baliq o'lib ketgan, tsetse pashshasi esa omon qolgan. Demak, "Zaharning ozi ham zahar, ko'pi ham zahar" deb bekorga aytilmagan.

Ma'lumotlarga qaraganda, har yili dunyo bo'yicha zaharli kimyoviy moddalardan 2 mln kishi zaharlanar ekan.

Ko'p chet mamlakatlarda ekinlarga kimyoviy preparatlarni qo'llashdan allaqachon voz kechilgan. Masalan: 1985 yilda AQS'Hda 20 ming fermada nafaqat zaharli preparatlarni qo'llashdan hatto mineral o'g'itlarni qo'llashdan ham voz kechib mo'l hosil olingan. GFRdagi 1400 xo'jalikda zaharli kimyoviy moddalarni va mineral o'g'itlarni ishlatmasdan don va boshqa ekinlar hosildorligi muttasil oshirilyapti. Rossiyaning Omsk oblastidagi Muramtsevskiy tumanidagi 1bta xo'jalikda gerbitsid va pestitsidlarni qo'llamasdan gektaridan 22 tsentner don olindi.

Bizdachi, Respublikamizni Toshkent, Farg'ona, Bekobod, Navoiy, Angren, Ohangaron, Namangan kabi shaharlariga qurilgan kimyoviy zavodlardan atrof -

muhit ifloslanib ketgan. Viloyatimizdagi Sho'rtan yiliga 9 ming tonna, Muborak kimyoviy korxonasi 56 ming tonna zaharli moddalarni chiqarib tashqi muhitni sezilarli darajada ifloslantirib turibdi. Qo'shni Tojikistonning Tursunzoda shahrida qurilgan alimyuniy zavodi chiqargan zaharli chiqindilardan nafaqat respublikasidagi joylar, balki Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Denov, Uzun tumanlari ham katta zarar ko'rmoqda, o'simliklar, hayvonlar, insonlar turli og'ir kasalliklarga duchor bo'lmoqdalar, bu joylarda ekinlar, daraxtlar qurib ketmoqda.

Jismoniy va ma'naviy jihatdan yetayotgan zararni, kasalliklarni, ularni tuzatish uchun sarflanayotgan sarf – harajatlarni pul bilan o'lchab bo'lmaydi.

S'Huning uchun mustaqilligimizning dastlabki davridanoq, atrof-muhitni kimyoviy moddalarning ifloslantirishidan saqlash chora- tadbirlari ko'rilmoqda. Kelgusida korxonalarda ekologik jihatdan sog'lom texnologiya yaratish, transport vositalarni chiqindisiz ishlashini ta'minlash, har bir kimyoviy korxonaning ekologik pasporti bo'lishi, uning texnologiyasi hozirgi zamon talablariga javob berishi shart. Biz ana shu yo'l bilan shaharlarimiz va qishloqlarimi tashqi muhitning musaffo bo'lishiga erishamiz.